

ISSN:2181-1458

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY**



namdu.uz ilmiy@inbox.uz

[Namdu_ilmiybolim](#)

ISSN:2181-0427

2022

5



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Кодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиги Д.Дехқонов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррир: [Н.Юсунов](#)

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 11.05.2022 йилдаги кенгайтирилган йигилишида муҳоама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 5**). Мақоаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



EMOTIONAL – EKSPRESSIVLIKNING NUTQ BIRLIKLARIDA IFODALANISHI

Navruzova Nigina Xamidovna

Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: n.x.navruzova@buxdu.uz

Tel.: +998907107506

Аннотация: Til – kishilarga fikrlashuv, fikrlash quroli bo'lib xizmat qiladigan noyob ijtimoiy hodisa. Leksik birliklar borliqdagi narsa va hodisalarni nomlaydi, shu bilan birga so'zlovchiga ta'sir etish vazifasini ham bajaradi. Ushbu maqolada emotsional-ekspressivlikning nutq birliklarida ifodalanishi ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy tahlil qilingan.

Калит so'zlar: nominativ birliklar, adgerent, ingerent, emotsional, ekspressiv, stilistik.

ВЫРАЖЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНОСТИ В ЕДИНИЦАХ РЕЧИ

Наврузова Нигина Хамидовна

Преподаватель кафедры английского языкознания Бухарского государственного университета

E-mail: n.x.navruzova@buxdu.uz

Tel.: +998907107506

Аннотация: Язык – это уникальное социальное явление, которое служит орудием мышления людей. Лексические единицы называют существующие вещи и события, но также служат для воздействия на говорящего. В данной статье проводится сравнительный анализ выражения эмоциональной выразительности в речевых единицах английского и узбекского языков.

Ключевые слова: номинативные единицы, адгерент, ингерент, эмоциональный, экспрессивный, стилистический.

EXPRESSING EMOTIONAL - EXPRESSIVENESS IN SPEECH UNITS

Navruzova Nigina Khamidovna

Teacher of English linguistics department, Bukhara state university

E-mail: n.x.navruzova@buxdu.uz

Tel.: +998907107506

Annotation: Language is a unique social phenomenon that serves as a means for people to think. Lexical units name things and events in existence, but also serve to influence the speaker. This article provides a comparative analysis of the expression of emotional expressiveness in speech units in English and Uzbek.

Key words: nominative units, adherent, inherent, emotional, expressive, stylistic.

Til sistemasidagi har qanday birlik nutq jarayonida voqelanadi. So'z tilning eng muhim nominativ birligidir, chunki u borliqdagi narsa- buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qiladigan mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, rang-tus, maza-ta'm, hajm-miqdor, xislat kabi belgi- xususiyatlarni nomlaydi: daraxt (predmet nomi), ong (mavhum tushuncha nomi), ishlamoq (harakat nomi), oq (rang-tus nomi), shirin (maza-ta'm nomi), katta (hajm nomi), besh (miqdor nomi) kabi. Tilning lug'at boyligidagi bunday so'zlar leksik birliklar sanaladi. Shu

sababdan, leksemalarda atash vazifasidan tashqari turli qo'shimcha ma'no (konnotativ) ma'nolar ham voqelanadi [1]. Nominativ birliklarning konnotativ ma'nolari, tahlili til tadqiqotchisi M.Mamadaliyevaning "O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti" nomli ilmiy tadqiqotida batafsil yoritilgan. Uning fikricha, konnotatsiyaning asosiy vazifasi nutq pragmatikasi bilan bevosita va uzluksiz bog'langan ta'sir etish funksiyasidir. Bu ta'sir ifodalayotgan fikrning so'zlovchi uchun qay darajada muhimligi adresatga yetkazish jarayonida yuzaga chiqadi. Til tadqiqotchisi N.Axmedova o'zining "O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik – konnotativ aspekti" nomli ilmiy ishida, konnotatsiya semantikaning ekspressivlikni belgilovchi makrokomponenti bo'lib, nomlash jarayonida voqelikni baholash sifatida paydo bo'ladi, deb ta'riflaydi. Uning fikricha, kundalik hayotimizda, nutq jarayonida keng qo'llaniladigan, aloqa – aralashuvga xizmat qiladigan murojaat birliklariga adgerent konnotatsiya – aloqa aralashuvida hosil bo'ladigan, bevosita so'zlovchining milliy ruhiyati, dunyoqarashi, urf – odatlari, muomala madaniyati bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan pragmatik semalar xosdir.

Konnotativ vazifa nafaqat murojaat, undash, xitob kabi vazifalarni, balki so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan shaxsiy subyektiv munosabatini, hurmat – e'tibor, yaqinlik, erkalash, g'azab, nafrat, do'q – po'pisa, haqorat kabi ijobiy yoki salbiy munosabatlarni ham ifodalaydi [2]. Konnotatsiya tushunchasi lingvistik nazariyada o'ziga xos munosib o'rinni egallagan bo'lib, bu tushuncha bir nechta nazariy tushunchalar uchun ishonchli asos, tayanch yasashga imkoniyat yaratadi. Bu nazariy tushunchalardan biri ko'p ma'nolilik tushunchasidir. Leksik ko'p ma'nolilik, odatda, so'zning turli ma'nolari, ularning leksikografik izohlaridagi umumiy ma'no komponenti yoki komponentlarida voqelanadigan semantik aloqani aniqlash hollarida kuzatiladi. Agar umumiy komponentlari bo'lmasa bu so'zlar omonimlarga bo'linadi. Tilshunos olim M.Mirtojiyev o'zining "O'zbek tili semasiologiyasi" nomli (2010) kitobida polisemiya (ko'p manolilik) har qanday tilda salmoqli o'rin tutishi haqida fikr yuritib, so'zlarning ko'p ma'noliligi til boyligida o'z o'rniga ega ekanligini qayd etadi. Shu bilan birga olim leksikologiya, semasiologiyaga bag'ishlangan darsliklarda yo'l – yo'lakay aytilgan fikrlardan tashqari, polisemiyaning ma'lum tomonlariga bag'ishlangan ba'zi ilmiy ishlariga ham nazar tashlaydi. Bunda nafaqat mos keladigan ma'noning mavjudligini, balki qiyoslanayotgan ma'nolarning semantik strukturasiidagi nisbiy vazni, shuningdek, mazkur ma'noning ushbu konstrukturalariida tutgan o'rnini ham hisobga olish lozim. Shu talablardan kelib chiqib, "xo'roz" so'zining leksik ma'nosini ko'rib chiqaylik. Xo'roz (tovuqning erkagi) "цапец – курицы", ikkinchi ma'nosi esa *janjalkash, urishqoq odam*. Bunday izoh haqiqatdan ham, so'zning leksik ma'nosini ifodalaydi. Bu izohga xo'rozlarning vaqtli uyquga ketib, vaqtli uyg'onishi, ularning *urishqoqligi, zo'ravonligi, ularning o'ziga xos qadam tashlab yurishlari* kabi xislatlari kiritilgan. Bularning barchasi "oddiy xo'roz" (перых) tushunchasi uchun ahamiyatsiz bo'lgan belgilardir. Bu so'zning ikkinchi ma'nosi esa "janjalkash", "urishqoq", "qizishadigan", "jahli chiqadigan", "o'zini janjalkashlardek tutadigan" kishiga nisbatan ishlatiladi. Uning izohida umumiy birlamchi ma'noning konnotatsiyasi ham xizmat qilishi mumkin degan fikr paydo bo'ladi. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, birlamchi ma'no konnotatsiyasi ko'chma ma'no izohiga yaqqol kiritilgan bo'lishi kerak.

Leksik birliklarda bo'lganidek, morfologik birliklarda ham konnotativ ma'no ifodalanadi [3]. Konnotativ ma'no ifodalangan morfologik shakllar matnning emotsional – ekspressivligini oshiradi. Shuning uchun morfologik birliklarning konnotativ ma'nolarini tahlil qilish hozirgi



davr tilshunosligining dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Morfologik shakllarning konnotativ ma'nosini tahlil etish, ularning qo'shimcha ma'nolar ifodalash holatlariga, ularning ilmiy tahliliga aniqlik kiritishga yo'l ochadi [4]. Jumladan, o'zbek tilidagi ot so'z turkumining ko'plik, egalik, kelishik kategoriyalari ko'rsatkichlari va o'xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalarning stilistik xususiyatlari R.Qo'ng'urovning "O'zbek tili stilistikasidan ocherklar", "Стилистика имен существительного в узбекском языке" monografiyalarida batafsil o'rganilgan. Shuningdek, morfologik birliklardagi konnotativ ma'noning ifodalanishi haqida A.G'ulomov, M.Asqarova, R.Rasulovlarning ilmiy ishlarida ham keng talqin etilgan. R.Qo'ng'urov kelishiklarning konnotativ ma'nosini ushbu kategoriya stilistikasi nomi ostida tahlil qiladi. M.Mamadaliyeva esa ot leksemalarining morfologik shakllari o'z grammatik ma'nosidan tashqari, qo'shimcha ma'nosiga ham ega. Bu ularning konnotativ ma'nosi deb hisoblaydi. M.Sodiqova tomonidan esa o'zbek tilidagi fe'l so'z turkumi konnotativ ma'nolarning semantik – stilistik xususiyatlari tahlil va tadbiq qilingan. Morfologik birliklarda konnotativ ma'no maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek, malum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ifodalanadi [5]. Bu qo'shimcha ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Odatda, erkalash, suyish, hurmat qilish, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, tantanavorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan: *toychoq, qizaloq, bolaginam, do'mbog'im, shakarim* kabi. Salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarga *jirkanish, mensimaslik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya, kesatiq* kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar kiradi.

Leksik hamda morfologik birliklarda bo'lganidek, sintaktik birliklarda ham konnotativ ma'no kuchli ifodalanadi. So'zlashuv va badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usullardan keng foydalaniladi [6]. She'riyatda ham shoirlar gap bo'laklarining o'rnini almashtirish bilan ohangdorlik va ta'sirchanlikni ta'minlaydilar. A.Oripovning quyidagi misralarida ushbu hodisadan foydalanib, she'r ta'sirchanligini oshirilganligini ko'rish mumkin:

Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo,

Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.

Ikkisi ichra ham ko'rmadim aslo,

Molim yomon degan biror kimsani

Shunday qilib, barcha til birliklari konnotativ ma'nolarga ega. Ular tilshunoslar tomonidan bir qadar o'rganilgan. Shunga qaramay, bu sohadagi ilmiy izlanishlarni yanada davom ettirish ayniqsa, fonetik va leksik birliklardagi konnotativ ma'nolarni chuqur tatbiq etish davr talabidir. So'zdagi nutq tovushlarining turli xil talaffuzi xilma – xil konnotativ ma'nolarni hosil qiladi. Bunday ma'nolar so'zdagi denotativ ifodaga qilingan ilova bo'lib, u so'zlovchi va tinglovchining turli xil munosabatini: ichki – hayajoni, istak – tilak, ta'sirlanishni aks ettiradi. Nutq tovushlarida ifodalangan konnotativ ma'no ularning paradigmatic va sintagmatic munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Nutqning tovush tuzilishi fikr mazmuni bilan organik bog'langandagina uslubiy ahamiyatga ega bo'ladi. Badiiy nutqda adgerent konnotatsiya boshqa nutq uslublariga qaraganda kuchli ifodalangan bo'ladi. Nutqda qo'shimcha ma'no bo'yog'i nafaqat unli yoki undosh tovushlarning turli xil talaffuzida, balki supersegment vositalar yordamida ham faol ro'yobga chiqadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Navruzova, N., & Haydarov, A. (2022). КОННОТАТИВНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ЗВУКОВЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4462
2. Navruzova, N. (2022). ПОДХОДЫ К ЛЕКСИЧЕСКИМ КОННОТАЦИЯМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4356
3. Khamidovna, N. N. (2022). The importance of denotation and connotation. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 119–120. <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/62>
4. Khaydarov, Anvar Askarovich and Norova, Mavluda Fayzulloyevna (2021) "CONNOTATIVE MEANINGS OF PHONETICALLY MODIFIED WORDS IN PRONUNCIATION," Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 5 : Iss. 56 , Article 4. DOI: 10.52297/2181-1466/2021/5/5/4. <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol5/iss56/4>
5. Haydarov, A. (2022). ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СЛОВА НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4344
6. Haydarov, Anvar Askarovich and Navruzova, Nigina Hamidovna (2021) "STYLISTIC FEATURES OF INTONATION," Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 5 : Iss. 1 , Article 2. DOI: 10.52297/2181-1466/2021/5/1/2. <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol5/iss1/2>

SAID AHMAD ASARLARIDAGI AYRIM LAQABLARNING LEKSIK – SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Nurdinbayeva Nargizaxon Maxammadjon qizi

Namangan davlat universiteti lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Tel: 97 217-73-43 e-mail: nurdinbayevanargiza@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yozuvchi Said Ahmad asarlaridagi ayrim laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: antroponim, laqab, motiv, motivatsion asos, salbiy xarakter, ijobiy xarakter, leksik-semantik tahlil, uslubiy xususiyat.

ЛЕКСИКО - СЕМАНТИЧЕСКИЕ И СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ ПРОЗВИЩ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САИДА АХМАДА

Нурдинбаева Наргизахон Махаммаджон кызы

Наманганский государственный университет языкознания (узбекский) 2 курс магистратура

Tel: 97 217-73-43 e-mail: nurdinbayevanargiza@gmail.com

Аннотация: в статье лексико - семантические и стилистические особенности некоторых прозвищ в произведениях писателя Саида Ахмада.

Ключевые слова: антропоним, прозвище, мотив, мотивационная основа, отрицательный персонаж, положительный персонаж, лексико – семантический анализ, методологический признак.



87	Лингкультурологические свойства антонимов в разных языках К.Э.Орипова	471
88	Dialectal studies on uzbek folk friends the study of units Sh.Mahmadiev	475
89	Aka-uka grimmning "Kinder-Und Hausmärchen" ertaklar to'lamidagi yalmog'iz obrazi K.X.MansurovaSh.N.Ubaydullayev	479
90	Tadqiqotlar davom etadi . . . N.Otajonov, U.Abdurasulova	482
91	Nemis tilida idiomalarning lingvomadaniy tahlili Sh.S.Imyaminova, O.N.Karimova	487
92	Ingliz tilida gumon olmoshi va uning klassifikatsiyasi Z.B.Rashidova	492
93	"Mahbub Ul - Qulub" leksikasining tarixiy - etimologik tasnifi: o'z qatlam leksikasi I.Karimov	496
94	Семантик майдон ва уни ташкил этувчи тил воситалари А.И.Маткаримова	501
95	Инглиз тилида равиш ва сифатда градуациянинг намоён бўлиши М.Ф.Неъматова	507
96	Communicative language approach to teaching, testing and assessing language M.G.Qutliyeva	512
97	Инглиз тили лексикасидаги ўзгаришлар динамикаси М.М.Тиллавова	519
98	Emotsional – ekspressivlikning nutq birliklarida ifodalanishi N.X.Navruzova	528
99	Said Ahmad asarlaridagi ayrim laqablarning leksik – semantik va uslubiy xususiyatlari N.M.Nurdinbayeva	531
100	"Ўзбек адиблари асарларининг немисча таржималарида ўлчов бирликларини берилиши" У.И.Юсупова	535
101	Terminologiyada ziyorat turizm atamalarining talqini F.S.Vakhidova	541
102	Qarindoshlik atamalari va tilning leksik tizimidagi xususiatlari M.Sh.Saidova	544